

AHOLINI IJTIMOY HIMOYALASHNI MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Mirzaev Baxrom

Mustaqil izlanuvchi

“MIR-WORLD PHARM” MCHJ rahbari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7162407>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning dolzarbligi va ahamiyati, davlat budjetidan amalga oshirilgan xarajatlarning dinamiyasi va tarkibi tahlil etilgan. Shuningdek, ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishda mavjud muammolarni bartaraf etish va moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy sohani moliyalashtirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat-xususiy sheriklik.

KIRISH

Mamlakatdagi aholining ijtimoiy faol holati – har bir mehnatga layoqatli fuqaro o'zi haqida o'zi qayg'urishi, munosib yashashi uchun mustaqil mehnat qilishi kerakligini anglatadi. Har bir fuqaro, avvalo, daromad keltiradigan ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanishga intilishi, tirikchilik qilishi uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklarni egallashi, o'z ustida tinmay ishlashi hamda jamiyat bergan huquqiy imkoniyatlardan foydalangan holda o'zining aktiv faoliyatini takomillashtirib borishi zarur.

Jamiyatni boshqarayotgan davlat tomonidan berilgan imkoniyatlardan fuqarolar o'zlarini ijtimoiy ahvollarini yaxshilashda foydalanishlari lozim. Shu bilan birga, yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishda mutaxassislarning ishtirok etishi, zamonaviy texnikani o'rganish bo'yicha malakasini oshirish uchun berilayotgan imkoniyatlardan foydalanish orqali fuqarolar yangi imkoniyatlarni qo'lga kiritib, yuqori daromadga ega bo'lishi hamda o'z hayotini farovon bo'lishini ta'minlashlari lozim.

ASOSIY QISM

G.Kasimova o'z ilmiy tadqiqot ishlarida – xorijiy mamlakatlar amaliyotida ijtimoiy himoya tizimining asosiy yo'nalishlari hamda moliyalashtirish masalalari, shu bilan birga pensiya ta'minoti tizimining chet el tarjimalari o'rganilgan||. Boshqa bir iqtisodchi D.Raxmonov Y'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan. Xorijlik olimlar N.D.Emirov va A.U.Emirovalar tadqiqot ishlarini ijtimoiy sohani boshqaruvini innovatsion tizimli modelini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Davlat budjeti xarajatlarining kutilayotgan ijrosi tasdiqlangan rejaga nisbatan ko'p bo'lishi ijtimoiy soha va boshqa kasb egalari mehnatiga haq to'lash miqdorlarining bosqichma-bosqich oshirilishi, yoqilg'i-energetika resurslari narxlari va tariflarining o'zgarishi hamda aholining kam ta'minlangan qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish maqsadlariga Davlat budjetidan qo'shimcha mablag'lar yo'naltirish hisobiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 iyuldagi PF-5765-sonli —Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida||gi Farmoniga asosan barcha budjet muassasalari va tashkilotlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar hamda nafaqalar miqdorlarini oshirish tadbirlari uchun sohalarga qo'shimcha 2 824,5 mlrd so'm mablag'lar ajratildi. Shuningdek:

Ijtimoiy soha xarajatlariga Davlat budjeti parametrlarida 53148,9 mlrd. so'm ko'zda tutilgan bo'lib, yil yakuniga ko'ra 55644,7 mlrd. so'mga, ya'ni 2495,8 mlrd. so'mga yoki 4,7 foizga ko'p ijro etilishi kutilmoqda, xususan:

- ta'lim sohasi uchun ko'zda tutilgan xarajatlar rejasi 25035,4 mlrd. so'm bo'lib, 28527,7 mlrd. so'mga, ya'ni 3492,3 mlrd. so'mga ko'p ijro etilishi kutilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi —Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida||gi PQ-3907-sonli qarori bilan o'qituvchilarning ijtimoiy mavqei va nufuzini oshirish hamda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish maqsadida ularning mehnatiga haq to'lash miqdorlari joriy yilning 1 yanvaridan o'rta hisobda 1,2 baravarga oshirilishi munosabati bilan sohaga qo'shimcha mablag'lar yo'naltirilgan;
- sog'liqni saqlash sohasi uchun ko'zda tutilgan xarajatlar rejasi 11105,7 mlrd. so'm bo'lib, 12934,9 mlrd. so'm, ya'ni 1829,2 mlrd. so'mga ko'p ijro etilishi kutilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabrdagi —Davlat tibbiyot muassasalari va sog'liqni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida||gi PQ-4007-sonli qarori bilan sog'liqni saqlash sohasi tizimidagi kadrlar salohiyatini mustahkamlash va ularning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida tibbiyot va farmasevtika xodimlarining mehnatiga haq to'lash miqdorlari joriy yilning 1 apreldan 1,15 baravarga oshirilishi munosabati bilan sohaga qo'shimcha mablag' ajratilgan.

Mamlakat ijtimoiy himoya tizimi bilan bog'liq quyidagi muammolarni keltirish mumkin:

–O'zbekistonda ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy yordam va mehnat bozorini

faollashtirish dasturlaridan iborat bo'lgan, nisbatan aniq shakllantirilgan va keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimi mavjud, ammo umumiy aholining deyarli yarmi va kam ta'minlangan oilalarning uchdan bir qismi ijtimoiy himoya dasturlari bilan ta'minlanmagan .

–Aholining ko'p qismi haligacha ijtimoiy ta'minotga erisha olgani yo'q: band aholining qariyb 60 foizi norasmiy sektorda bo'lib, badal to'lashni nazarda tutuvchi ijtimoiy sug'urta dasturlarida qatnashmaydi.

–Ijtimoiy yordam dasturlari yetarlicha qamrovga ega emas. Masalan, ilgari bolalar nafaqalari barcha bolali oilalarga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda ular faqat kam ta'minlangan oilalarga yo'naltiriladi.

– Hozirgi kunda mehnat bozorini faollashtirish dasturlarining aholini qamrash darajasi cheklangan bo'lib, ular asosan jamoatchilik ishlari, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'rgatish va o'qitish dasturlaridan iborat. So'nggi paytda bandlikni qo'llab-quvvatlovchi faol va passiv dasturlar uchun davlat xarajatlari oshgan bo'lsa-da, qamrov sezilarli darajada pastligicha qolmoqda.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos xususiyati, uning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ijtimoiy yordam olish huquqini baholaydigan mahallaning roli yuqori hisoblanadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishda davlat- xususiy sheriklikni yanada takomillashtirish, davlat budjetidan ijtimoiy soha xodimlarini yanada oshirish hamda boshqa ijtimoiy imtiyozlar berish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 iyuldagi PF-5765-sonli –Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida||gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabrdagi –Davlat tibbiyot muassasalari va sog'liqni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida||gi PQ-4007-sonli qarori.
3. Kasimova Gulyar Axmatovna, Ametova Fotima Rozmatovna Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy himoya xarajatlarini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). 2017.№2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/horizhiy-mamlakatlarda-izhtimoiy-imoya-harazhatlarini-moliyalashtirishning-ziga-hos-hususiyatlari> (data obraceniya: 09.10.2020).

4. Raxmonov D.A. Ўzbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. T., 2018. -11-b
5. Emirov N.D., Emirova A.U. Sistemnaya model innovatsionogo upravleniya sotsialnoy sferoy. Monografiya. - Moskva: «Prospekt», 2017. -S. 144.